



## 2019 yil yanvar-fevral oylarida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yil yanvar-fevral oylarida viloyatdagi korxonalar tomonidan 1980,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 117,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 5,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 24,1 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish - 34,9 % ga o'sishi hisoblandi.

## Yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





## Samarqand viloyatida o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi



### *Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.*

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.



### *Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)*

2019 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1905,7 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,2 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,6 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali - 27,2 % ni, o'rta-quyi texnologiyali - 7,4 % ni va quyi texnologiyali - 61,0 % ni tashkil etdi.





### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,8 % ni) tashkil etdi.



### **Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.



### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1049,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 6,0 % ga o'sishini ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 53,0 % ni tashkil etdi.

## 2019-yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sish sur'ati



2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 61,2 % dan 2019-yil yanvar oyida 62,6 % ga o'sishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va piva 1,1 % ni (2018-yil yanvar-fevral oylarida 1,6 %) tashkil etdi.

### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 882,4 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 44,6% ni tashkil etdi.



## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajimdagi ulushi, %.

2018-yil yanvar-fevral

2019-yil yanvar-fevral




- Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
- Viloyatning boshqa korxonalari

### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'pi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 43,3 %), Jomboy (19,5 %), Samarqand (6,4 %), Urgut (5,9 %), Pastdarg'om (3,7 %), Bulung'ur (3,7 %) va Tayloq (3,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'm)




2019-yilning yanvar-fevral oylarida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 865,3 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 43,7 % ni tashkil etdi.

**2019-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %.**


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulung'ur tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nurobod (100,0), Qo'shrabod (100,0), Samarqand (99,6), Urgut (98,0), Tayloq (83,3) va Oqdaryo (79,1) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush, Kattaqo'rg'on shahri (24,9 %), Narpay (18,8), Jomboy (12,4), tumanlarida kuzatildi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish**
*(yirik korxonalar bo'yicha)*
**Qayta ishlash sanoati**

<i>Sanoat mahsulotlari nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2019-yil yanvar-fevral</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Tarkibida ikkita ta'minlovchi element–azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	 <i>ming tonna</i>	1,6	61,6 ↓
Aroq	 <i>mingl. 100% spirt</i>	43,8	15,9 ↓
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	 <i>ming l. 100% spirt</i>	14,4	26,5 ↓
Uzum vinosi	 <i>ming l.</i>	36,8	12,7 ↓
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	 <i>ming l.</i>	1601,0	-
Yumshoq bug'doy va spelta uni	 <i>ming tn.</i>	26,1	112,1 ↑

<p>Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni(buxanka), og'irligi 600 g.</p>		<p><i>tn.</i> 121,0</p>	<p>99,2 ↓</p>
<p>Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)</p>		<p><i>tn.</i> 2430,0</p>	<p>115,4 ↑</p>
<p>Paxta tolasi</p>		<p><i>ming tn.</i> 11,8</p>	<p>63,7 ↓</p>
<p>Paxta chigiti</p>		<p><i>ming tn.</i> <i>ming tn.</i> 18,6</p>	<p>66,7 ↓</p>
<p>Paxta tiviti (lint)</p>		<p><i>tn.</i> 1165,0</p>	<p>76,7 ↓</p>

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


<p>Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi</p>		<p><i>mln.kVt/s</i> 8,7</p>	<p>319,0 ↑</p>
<p>Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)</p>		<p><i>ming Gkal.</i> 15,2</p>	<p>104,8 ↑</p>



**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 5136 ta sanoat korxonalari faoliyat kursatmoqda, shundan 1442 tasi (mavjud korxonalar umumiy soning 28,0 %) Samarqand shahriga, 753 tasi (14,7 %) Urgut tumaniga, 375 tasi (7,3 %)-Pastdarg‘om tumaniga tug‘ri kelmoqda.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
(2019-yil 1 mart holatiga)



2019-yil yanvar-fevral oylarida viloyatda 529 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning Samarqand shahri (21,0 foiz), Ishtixon (9,3 foiz) , Tayloq (9.1 foiz), Urgut (11,5), Pastdarg‘om (7,9 foiz) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
(2019-yil 1 mart holatiga)



Sanoat statistikasi bo'limi  
E.A.Qo'qonov  
Tel: (66) 235-06-80